



UDK:811.512

Anvar SOBIROV,
Mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: asobirov@gmail.com

PhD Y.Narzulloyev taqrizi asosida

WORD ORDER AS A GRAMMATICAL CATEGORY OR A DISCURSIVE PHENOMENON

Annotation

This topic is devoted to the analysis of the place and functions of word order in the language system from the perspective of both a grammatical category and a discursive phenomenon. The study examines the role of word order in expressing syntactic relations, its importance in ensuring cohesion between sentence components, and its functions in realizing information structure, theme-rheme relations, logical stress, and communicative purposes. In addition, a comparative analysis of fixed and free word order in different languages is conducted, highlighting its grammatical and pragmatic features. As a result, it is argued that word order is not only a means of syntactic organization but also a discursive mechanism that ensures the effective organization of meaning and information in speech.

Key words: Word order, grammatical category, discursive phenomenon, syntax, pragmatics, information structure, theme-rheme, communicative purpose, sentence constituents, typology of word order, discourse analysis.

СЛОВОПОРЯДОК КАК ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ИЛИ ДИСКУРСИВНОЕ ЯВЛЕНИЕ

Аннотация

Данная тема посвящена анализу места и функций порядка слов в языковой системе с точки зрения грамматической категории и дискурсивного явления. В исследовании рассматривается роль порядка слов в выражении синтаксических отношений, его значение в обеспечении связи между членами предложения, а также его функции в формировании информационной структуры, отношений тема-рема, логического ударения и коммуникативных целей. Кроме того, проводится сопоставительный анализ фиксированного и свободного порядка слов в различных языках, раскрываются его грамматические и прагматические особенности. В результате обосновывается, что порядок слов является не только средством синтаксической организации, но и дискурсивным механизмом, обеспечивающим эффективную организацию смысла и информации в процессе речи.

Ключевые слова: Порядок слов, грамматическая категория, дискурсивное явление, синтаксис, прагматика, информационная структура, тема-рема, коммуникативная цель, члены предложения, типология порядка слов, анализ речи, дискурс.

SO‘Z TARTIBI GRAMMATIK KATEGORIYA YOKI DISKURSIV HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur mavzu so‘z tartibining til tizimidagi o‘rni va funksiyalarini grammatik kategoriya hamda diskursiv hodisa nuqtayi nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda so‘z tartibining sintaktik munosabatlarni ifodalashdagi roli, gap bo‘laklari o‘rtasidagi bog‘lanishni ta‘minlashdagi ahamiyati hamda axborot tuzilmasi, tema-rema munosabatlari, urg‘u va kommunikativ maqsadlarni yuzaga chiqarishdagi vazifalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turli tillarda so‘z tartibining qat‘iy va erkin shakllari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, uning grammatik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Natijada so‘z tartibi nafaqat sintaktik tuzilmani belgilovchi vosita, balki nutq jarayonida ma‘no va axborotni samarali tashkil etuvchi diskursiv mexanizm ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: So‘z tartibi, grammatik kategoriya, diskursiv hodisa, sintaksis, pragmatika, axborot tuzilmasi, tema-rema, kommunikativ maqsad, gap bo‘laklari, so‘z tartibi tipologiyasi, nutq tahlili, diskurs.

Kirish. Me‘yoriy qolip masalasi tilshunoslikda til birliklarining adabiy norma asosida shakllanishi, qo‘llanishi va jamiyat tomonidan qabul qilingan qoliplarga mos kelishini o‘rganuvchi masalalardan biridir. Bu tushuncha, ayniqsa, sintaksis, uslubshunoslik va nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. “Me‘yor” – til birliklarining adabiy til talablariga mos qo‘llanishidir. “Qolip” esa muayyan til hodisasining tayyor strukturasi yoki modeli hisoblanadi. Shuning uchun me‘yoriy qolip deganda til birliklarining jamiyat tomonidan tan olingan, grammatik va uslubiy jihatdan barqarorlashgan shakli tushuniladi. O‘zbek tilidagi ega + kesim tartibi, aniqlovchi + aniqlanmish birikmasi, gapning standart sintaktik qurilishi, me‘yoriy qoliplarga kiradi. Me‘yoriy qolip masalasi adabiy tilni saqlash, nutqning ravonligini ta‘minlash, grammatik me‘yorlarni tartibga solish, uslubiy xatolarni kamaytirish uchun muhim hisoblanadi. Agar

nutqda me‘yoriy qolip buzilsa, fikrning aniqligi pasayadi. Ayniqsa, rasmiy-uslubiy matnlarda qoliplarning barqarorligi katta ahamiyatga ega. Struktur tilshunoslik vakillari tilni qat‘iy tizim deb qaraydi. Shu sababli ular til birliklarining standart modellarini asosiy mezon sifatida baholaganlar. Gap qoliplari, sintaktik modellarning takrorlanishi til tizimining barqarorligini ko‘rsatadi. Masalan, SOV (ega-to‘ldiruvchi–kesim) modeli o‘zbek tilining asosiy me‘yoriy sintaktik qolipi hisoblanadi. So‘z tartibining erkinlashuvi esa funksional ehtiyoj bilan bog‘lanadi. Funksional tilshunoslikda me‘yoriy qolip faqat grammatik model emas, balki kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Ya‘ni qolip nutq vaziyatiga qarab o‘zgarishi mumkin. Badiiy matnda inversiya, poetik sintaksisdagi odatiy tartib buzilishi, emotsional gaplarda kesimning oldinga chiqishi me‘yoriy qolipdan chekinish bo‘lsa-da, uslubiy vazifa bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida me'yoriy qolip masalasi sintaktik qurilish, adabiy til me'yorlari, nutq madaniyati, uslubiy differensiya doirasida o'rganilgan. Abduvali Nurmonov, Shavkat Rahmatullayev kabi olimlar til me'yorlari va sintaktik qoliplar haqida tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqda qoliplarning ikki turi uchraydi: barqaror qoliplar – doimiy grammatik model, individual qoliplar muallif uslubiga xos shakllar. Badiiy adabiyotda individual qoliplar ko'p uchraydi. Ammo ilmiy va rasmiy uslubda me'yoriy qolip ustun turadi. Me'yoriy qolip masalasi til tizimining tartiblilikini, adabiy norma barqarorligini va nutqning tushunarligini ta'minlaydi. Zamonaviy tilshunoslikda bu tushuncha faqat grammatik model emas, balki kommunikativ va uslubiy hodisa sifatida ham talqin qilinmoqda. Ayniqsa, funksional va antroposentrik yondashuvlarda me'yoriy qolipning vaziyatga moslashuvchanligi muhim deb qaraladi. Me'yoriy qolip til birliklarining adabiy til me'yorlariga mos holda shakllangan, jamiyat tomonidan qabul qilingan va nutqda muntazam qo'llanadigan struktur modelidir. Bu tushuncha tilning grammatik, sintaktik hamda uslubiy tizimi bilan bog'liq bo'lib, nutqning to'g'ri, ravon va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Tilshunoslikda "me'yor" va "qolip" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ular bir xil emas: me'yor – tilning to'g'ri qo'llanish qoidasi, qolip - shu qoidaning amaliy struktur ko'rinishi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilidagi "Talaba kitob o'qidi" gapida ega + to'ldiruvchi + kesim tartibi o'zbek tilining me'yoriy sintaktik qolipi hisoblanadi. Me'yoriy qolipning asosiy belgilari: 1. Barqarorlik – me'yoriy qolip uzoq vaqt davomida til amaliyotida saqlanadi. U tasodifiy

Uslub	Me'yoriy qolip darajasi
Ilmiy uslub	Juda yuqori
Rasmiy uslub	Qat'iy
Publitsistik uslub	Nisbatan erkin
Badiiy uslub	Individual va erkin

Badiiy matnda yozuvchi ba'zan me'yoriy qolipni buzib, poetik ta'sir hosil qiladi. Inversiya, ellipsis, sintaktik takror kabi vositalardan erkin foydalaniladi. O'zbek tilshunosligida me'yoriy qolip masalasi adabiy til me'yorlari, sintaksis, nutq madaniyati, uslubshunoslik bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. G'ozzi Olim Yunusov, Abduvali Nurmonov, Ne'mat Mahmudovlarning ishlarida til me'yorlari va sintaktik modellarga oid fikrlar uchraydi. Me'yoriy qolip til tizimining tartibli va barqaror ishlashini ta'minlovchi muhim lingvistik hodisadir. U nafaqat grammatik tuzilish, balki nutq madaniyati, kommunikatsiya va uslubiy maqsad bilan ham bog'liqdir. Zamonaviy qarashlarda me'yoriy qolip tilning qat'iy qoidasi emas, balki nutq ehtiyojiga moslashuvchi dinamik tizim sifatida baholanmoqda. Me'yoriy qolip (normativ qolip) tushunchasi odatda tilshunoslik, sotsiologiya va texnik standartlashtirish sohalarida qo'llaniladi. Bu tushuncha muayyan bir tizimda to'g'ri deb qabul qilingan, barcha uchun majburiy yoki tavsiya etilgan andozalarni anglatadi.

Tilshunoslikda bu tushuncha adabiy til me'yorlari bilan bog'liq. Bu so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishi, yozilishi va gapda o'rinni qo'llanilishi bo'yicha belgilangan qoidalardir. Me'yoriy qolip tilning barqarorligini ta'minlaydi va muloqotdagi tushunmovchiliklarning oldini oladi. Orfoepik qolip to'g'ri talaffuz qoidalari. Orfografik qolip to'g'ri yozish qoidalari. Grammatik qolip so'z o'zgartirish va gap tuzish qoidalari. Sintaktik me'yor deganda gapdagi so'zlarning ma'lum bir tartib va qonuniyat asosida birikishi tushuniladi.

emas, balki tarixiy taraqqiyot natijasida shakllanad. Aniqlovchining aniqlanishidan oldin kelishi, kesimning gap oxirida joylashishi. Bu holatlar o'zbek tilining turg'un sintaktik xususiyatidir. 2. Ijtimoiy qabul qilinganlik – til me'yori jamiyat tomonidan tan olinadi. Agar ma'lum qolip ommaviy nutqda faol qo'llansa va adabiy til talabiga mos bo'lsa, u me'yoriy qolipga aylanadi. Shu sababli sheva birliklari, individual muallif konstruksiyalari har doim ham me'yoriy qolip hisoblanmaydi. 3. Kommunikativ vazifadorlik – me'yoriy qolip nutqda fikrni aniq va tez yetkazishga xizmat qiladi. Qoliplarning shakllanishida inson tafakkuri va kommunikativ ehtiyoj muhim rol o'ynaydi. Rasmiy uslubda standart gap qurilishi, ilmiy uslubda aniq sintaktik model fikrning mantiqiyiligi ta'minlaydi. Til sathlarida tovushlarning adabiy talaffuzga mos qo'llanishi me'yoriy fonetik qolipni yuzaga keltiradi. Bunga urg'uning me'yoriy qo'llanishi, orfoepik talablar kiradi. So'z yasash va qo'shimcha qo'llashdagi normativlik morfologik qolipni tashkil qiladi. Ko'plik qo'shimchasining standart qo'llanishi, zamon shakllarining me'yoriy ishlatilishi ham morfologik sathga mansub. Sintaktik sathga gap bo'laklarining joylashuvi, bog'lanish turi va konstruksiya modellari kiradi. O'zbek tilidagi ega → ikkinchi darajali bo'lak → kesim tartibi asosiy sintaktik me'yor hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda me'yoriy qolip faqat qat'iy qoida sifatida emas, balki dinamik hodisa sifatida ham talqin qilinadi. Chunki til jamiyat bilan birga o'zgaradi. Ferdinand de Sossyur til tizimining barqaror tomonlarini muhim deb hisoblagan bo'lsa, keyingi funksional tilshunoslar qoliplarning nutq vaziyatiga qarab o'zgarishini ta'kidlaganlar. Roman Jakobson kommunikativ vazifaga ko'ra til birliklarining turlicha qo'llanishini izohlagan. Turli uslublarda qoliplarning qo'llanish darajasi farq qiladi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani uchun unda gap bo'laklarining joylashish xususiyatlari o'ziga xos qat'iy tartibga ega.

1. Gap bo'laklarining asosiy tartibi. O'zbek tilida gap qurilishining klassik formulasi: ega + to'ldiruvchi + kesim . Ega gapning boshida keladi. Kesim har doim gapning oxirida keladi, bu o'zbek tili sintaksisining eng muhim qoidasi. Ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ega va kesim orasida joylashadi. Misol: Men (ega) bugun (hol) kitobni (to'ldiruvchi) o'qidim (kesim).

2. So'z birikmalaridagi me'yoriy qolip. So'z birikmalarida ham qat'iy tartib mavjud: aniqlovchi + aniqlanmish . YA'ni sifatlovchi so'z o'zi xarakterlanuvchi so'zdan oldin kelishish shart. To'g'ri: Qizil olma, baland bino. Poetik bo'lmagan nutqda: Olma qizil, bino baland. (Bu ko'proq kesimlik qobiliyatini olib, gapga aylanib ketadi).

3. Hol va to'ldiruvchining o'ri. Bu bo'laklar ega va kesim orasida keladi.

Payt holi gapning boshida (egadan ham oldinga) kelishi mumkin: Ertaga biz mehmonga boramiz. O'rin holi egadan keyin keladi: Biz bog'da dam oldik.

Vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha bevosita kesimdan oldin keladi: U ukasiga xat yozdi.

4. Meyordan chekinish (Inversiya). Agar gapda so'zlar tartibi ataylab buzilsa, bu inversiya deyiladi. Inversiya asosan she'riyatda, badiiy adabiyotda yoki his-hayajonli nutqda qo'llaniladi. Me'yoriy: Men seni sog'indim. Inversiya: Sog'indim seni men. (Urg'u "sog'indim" so'ziga tushmoqda)

Gap bo'lagi	O'ri	Misol
Ega	Gap boshi	Anvar maktabga keldi
Aniqlovchi	Aniqlanmishdan oldin	Chiroyli gul ochildi
Hol	Kesimdan oldin	U tez yuradi

To'ldiruvchi	Kesimdan oldin	Onam non yopdi
Kesim	Gap oxirida	Men talaba bo'ldim

So'zlarning tartibi tabiiy til ifodasidagi so'zlar va iboralarning chiziqli ketma-ketligi, shuningdek, ma'lum bir tilda bunday ketma-ketlikni tavsiflovchi belgilar tizimidir. Ko'pincha jumladagi so'zlarning tartibi haqida to'xtalamiz, ammo iboralar va kompozitsion tuzilmalar ichidagi so'zlarning tartibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Grammatik yoki ma'no jihatidan bir-biriga bog'langan so'zlarning zanjir shaklida joylashishi inson nutqining chiziqli tabiatining zaruriy natijasidir. Biroq grammatik tuzilish juda murakkab va chiziqli ketma-ketlik munosabati bilan to'liq ifodalanishi mumkin emas. Shuning uchun so'zlarning tartibi grammatik ma'nolarning faqat bir qismini ifodalaydi, boshqalari morfologik toifalar, xizmat so'zlari yoki intonatsiya orqali ifodalanadi. So'z tartibining qoidalarini buzish ma'noning o'zgarishiga yoki lingvistik ifodaning grammatik xatolikka olib keladi.

O'zbek tilida aniqlanmishi ot bo'lgan qurilmalar juda ko'p uchraydi. Ot leksemalar sintaktik qurilmalarning uyushtiruvchi markazi sifatida o'ziga bog'lanayotgan leksemalar, ya'ni aniqlovchi vazifasidagi so'zlarni ergashtirib keladi. Unga tobe bo'lgan uzvlar esa uyushtiruvchi markaz hisoblanuvchi turli pozitsiyadagi (ega, hol, to'ldiruvchi) ot turkumida kelgan vositaning argumenti bo'lib keladi. O'z navbatida, ushbu sintaktik qurilmaning markazi bo'lgan ot leksemalar ham predikatga bog'lanib, uning argumenti sifatida "bo'sh o'rin"larini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Qurilma tarkibidagi tobe va hokim birliklar yaxlit holda butun gapga nisbatan bitta pozitsiyada keladi. Ot leksemalarga ergashib keluvchi ichki tobe qismlar ma'lum pozitsiyada kelgan birikmaning kengaytiruvchisi vazifasini bajaradi. Uyushtiruvchi markazi ot bo'lgan qurilmalarda aniqlovchi substansional jihatdan ot, olmosh, sifat, fe'l (sifatdosh), son, ravish hamda taqlid so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. L.Tenyur otga tobe bo'lgan, shuning uchun substantiv tugunga kiruvchi elementlar orasida eng ko'pi atributiv aniqlovchi hislanishini va o'zi tobe bo'lgan otni xarakterlashini ta'kidlaydi [1].

So'zlar tartibining erkinligi, qat'iyliги oppozitsiyasi haqidagi masala bo'yicha ko'p tilshunoslar o'z fikr - muohazalarini bildirganlar. Ammo so'zlar qat'iyliги yoxud, aksincha, so'zlar tartibining erkinligi tushunchalari konkret aniqlangan. So'zlar tartibining qat'iyliги yoki erkinligi tushunchalariga muayyan til taraqqiyotining barcha davrlarida bir xil baho berib bo'lmaydi. Chunki so'zlar tartibining tabiiy til taraqqiyotining har bir pog'onasida ma'lum darajada o'zgaradi, evolyutsion xarakterga ega bo'ladi, so'zlar tartibiga dinamik hodisa sifatida qarash zarur. Professor A.G'ulomov so'zlar tartibi tarixiy jihatdan bo'laklarning grammatik holatini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaganligini- turg'un bo'lganligini, erkin tartib til taraqqiyotining keyingi davrlarida tug'ilganligini qayd etadi. A.A.Pokrovskaya ham turkiy tillarning agglutinativ qurilishi shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy jarayonida hal qiluvchi rol o'ynagan qat'iy tartibning asta-sekin o'zgarishini ta'kidlaydi [2].

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, dastavval, so'zlar tartibining qat'iyliги yoki erkinligi masalasi so'zlar tartibining tarixiy o'sish yo'llari, evolyutsiyasi masalasining tarkibiy qismidir. So'zlar tartibining tarixiy takomili, evolyutsiyasi masalasi esa o'zbek tilshunosligidagina emas, turkologiyada ham kam o'rganilgan, ammo u yoki bu tilda tarixni-lingvistik jihatdan ham, tilning hozirgi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash nuqtayi

nazaridan ham, demakki, diaxironik planda ham, sinxronik planda ham yoritilishi zarur bo'lgan masalalardan biridir. Agar so'zlar tartibining o'zgartirishining ma'lum bir me'yori bo'lmaganda edi, tilning asosiy vazifasini bajarish qiyinlashgan bo'lar edi. Shu ma'noda A.I.Tomson "To'la erkin til bo'lmaydi" deb yozgan edi [3].

Xulosa va takliflar. Bundan yana bir xulosa kelib chiqadiki, u yoki bu tilda so'zlar tartibining tamomila erkinligi haqida gapirib bo'lmagani kabi, uning tamoman qat'iyliги, o'zgarimasligi haqida ham gapirib bo'lmaydi. Demak, mutloq erkin yoki mutloq o'zgarimas so'zlar tartibi haqida gapirish o'rinli emas, so'zlar tartibining erkinligi va qat'iyliги nisbiy tushunchalardir. Hozirgi o'zbek tilida ham so'zlar tartibining qat'iyliги va erkinligini shu nuqtayi nazardan baholash zarur. O'zbek tilida gap bo'laklaridan faqat uchtasidan aniqlovchi va ravish holi ma'lum darajada qat'iy, o'zgarimas tartibga ega, kesimning asosiy xususiyatlaridan biri, xarakteri gap oxirida kelishidir, aniqlovchi esa aniqlanmish oldida, ravish holi esa asosan kesim oldida keladi. Kesim aniqlovchi va ravish holdan boshqa bo'laklarida garchi odatda ishlatiladigan o'rin bo'lsa-da, ularda tartibining qat'iyliгiga nisbatan erkinligi kuchlidir. Bu bo'laklar turli xil faktorlar ta'siri ostida o'zining odatdagi joylashish o'rnini o'zgartirib turadi.

Professor F.A.Abdullayev, umuman, o'zbek adabiy tilining, jumladan, o'zbek tili sintaktik qurilishining keyingi yillardagi taraqqiyoti haqida gapira turib, so'zlar tartibi tizimidagi o'zgarishlar haqida ham qimmatli nazariy fikrlarni bildirdi [4]. M.Dryer va J.Xokins fikricha, so'z tartibi nuqtayi nazaridan dunyo tillari ikki turga bo'linadi, ular ifodalanadigan tillar soniga teng: chap va o'ng tarvaqaylab ketgan tillar. To'g'ri tarvaqaylab ketgan tillarda, bog'liq so'zlar guruhi odatda asosiy so'zdan (tepadan) keyin keladi: qo'shimcha – predikat fe'lidan keyin (xat yozadi), muvofiqlashtirilmagan ta'rif guruhi aniqlanadigan ismdan keyin (otamning uyi); bo'ysunuvchi birlashma ergash gapning boshida turadi (u kelgan); predikatning nominal qismi, odatda, ligamentdan keyin keladi (otam yaxshi o'g'il edi); ergash so'z – asosiy fe'l orqasida (men uning ketishini xohlayman); sintaktik jihatdan murakkab holat predikat fe'lidan keyin (soat yettida qaytib keldi); taqqoslash standarti-qiyosiy darajadagi sifat uchun (undan kuchliroq); yordamchi fe'l to'liq qiymatdan oldin (yo'q qilingan); predlogli konstruksiyalar ishlatiladi. O'ng shoxlangan tillarga, masalan, slavyan, german, roman, semit, avstroneziya va boshqalar kiradi. Levovetiv tillarda tobelik guruh asosiy so'zdan oldin keladi: u yerda bo'g'indan keyingi tuzilmalar mavjud (masalan, rus tilida kamdan-kam uchraydigan shaxsiy manfaat uchun iboralar) va odatda sanab o'tilgan guruhlarning barcha turlarida o'ng tomonga qarama-qarshi kengaygan so'z tartibi kuzatiladi, masalan, maktub yozadi, otamning uyi, u yaxshi o'g'il edi va hokazo, chap shoxlangan tillarga altay, ko'plab hindiron, kavkaz va boshqa tillar kiradi.

Xullas, yuqoridagi barcha olimlarning o'zbek tilida so'zlar tartibining xarakteri haqidagi qarashlarida bir mushtarak tomon bor: o'zbek tilida so'zlar tartibi erkindir. Lekin so'z tartibining qat'iyliги va erkinligi nisbiy ekanligini qayd etish zarur. Nutqdagi so'z tartibini istagancha o'zgartiraverish mumkin emas, chunki so'zlar tartibini o'zgartirishning muayyan chegarasi bor.

ADABIYOTLAR

1. Tenyur L.Osnovi strukturnogio sintaksisa.-Moskva:Progress,1988, str.158
2. Zakiyev M.Z. Sintaksicheskij story tatariskogo yazika. – Kazan. 1963.s. 385.
3. G'ulomov A., Asqarov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1965; Tomson A.I Obshee yazikovedeniye. Odessa 1910s.130.
4. Abdullayev F.A. Adabiy tilining funksional rivojlanishi masalalari. "O'zbek tili va adabiyoti", 1974, 5-son; Til qanday rivojlanadi. – Toshkent, 1972; So'zlar o'zaro qanday bog'lanadi. – Toshkent, 1974.